

“Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati IMTM-2022 xalqaro O’rta yer dengizi sayyohlik ko’rgazmasida ishtirok etmoqda

2022 29 Mart

“Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati joriy yilning 29-30 mart kunlari Tel-Aviv shahrida bo’lib o’tayotgan IMTM-2022 xalqaro O’rta yer dengizi turizm yarmarkasida ishtirok etmoqda.

“Uzbekistan Airways” AJ ko’rgazma stendida O’zbekiston sayyohlik kompaniyalari, shuningdek, Turizm va madaniy meros vazirligi, hunarmandlar ishtirok etmoqda.

O’rta yer dengizi xalqaro turizm yarmarkasi IMTM-2022 bu yil ekoturizm, sog’lomlashtirish va madaniy turizm, plyaj yoki shahar ichida dam olish, ommaviy takliflar, individual sayohatlar kabi yo’nalishlarni taqdim etadi.

Dunyoning 70 mamlakatidan taxminan 2 000 yaqin ko’rgazmali eksponentlari yangi yo’nalishlarni aniqlash, yanada yaqinroq aloqalar o’rnatish, hamkorlik shartnomalari tuzish, tajriba almashish va dunyo turizmi yangiliklari haqida ma’lumotlar olish uchun ushbu yirik sayyohlik maydonchasida to’plandilar.

“Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati stendi birinchi kundanoq ko’plab mehmonlar, jumladan, sayyohlik bozori mutaxassisleri va potentsial sayyohlarning e’tiborini jalb qildi.

Eslatib o’tamiz, “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasi haftasiga ikki marta Tel-Aviv shahriga muntazam qatnovlarini amalga oshiradi.